

NAVOIY VILOYATINING TURIZM SALOHİYATI VA UNING RIVOJLANISH DINAMIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy viloyatining turizm salohiyati, uni rivojlantirish istibollari, shart-sharoitlar va kelgusi rejalar bayon qilinadi. Shuningdek, viloyat turizm salohiyatini yanada rivojlantirishda xalqaro hamkorlik va yangi imkoniyatlar haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: Navoiy, turizm, tarixiy yodgorliklar, infratuzilma, ssalohiyat, imkoniyat, rivojlantirish, madaniy meros, obʼektlar, xizmat koʻrsatish, mehmonxona, ziyorat.

ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ И ДИНАМИКА ЕГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются туристический потенциал Навойской области, перспективы его развития, текущие условия и планы на будущее. Также обсуждаются вопросы международного сотрудничества и новые возможности для дальнейшего развития туристического потенциала региона

Ключевые слова: Навои, туризм, исторические памятники, инфраструктура, потенциал, возможности, развитие, культурное наследие, объекты, сервис, гостиница, паломничество

TOURISM POTENTIAL OF NAVAI REGION AND ITS DEVELOPMENT DYNAMICS

Annotation. This article examines the tourism potential of the Navoi region, prospects for its development, current conditions, and future plans. It also discusses issues of international cooperation and new opportunities for the further development of the region's tourism potential.

Keywords: Navoi, tourism, historical monuments, infrastructure, potential, opportunities, development, cultural heritage, sites, service, hotel, pilgrimage.

Kirish. Hozirgi kunga kelib Oʻzbekistonda 4000 dan ortiq meʼmoriy, tarixiy va tabiiy yodgorliklar, betakror landshaftlar hamda noyob oʻsimliklar va hayvonot turlari mavjud. Bu boy madaniy va tabiiy meros sayyohlarning yurtimizga boʻlgan qiziqishini orttiruvchi muhim omil hisoblanadi. Biroq, mavjud turistik infratuzilmaning oʻrtacha darajasi mamlakat miqyosida atigi 20 foizdan biroz oshadi. Navoiy viloyatida esa bu koʻrsatkich bundan ham past. Shu sababli, milliy turizm infratuzilmasining salohiyati va sifatini oshirish eng muhim va dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Navoiy viloyati Oʻzbekiston Respublikasi markazida, Amudaryo chap sohilidagi Zarafshon vodiysi va Qizilqum choʻlining janubiy qismida joylashgan. Umumiy maydoni 110,99 ming km²ni tashkil etib [1;103], bu Respublika hududining 24,9 foizini tashkil etadi. Aholisi 2024-yil holatiga koʻra 1 million 100 ming kishiga yaqin[2].

Asosiy qism. Viloyatning geografik joylashuvi – Sharqiy Yevropa va Osiyo yoʻllari chorrahasida joylashganligi sababli u tarixiy davrlardan boshlab karvon yoʻllarining muhim boʻgʻini boʻlib kelgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yoʻli Navoiy hududidan oʻtganligi viloyatda turizm infratuzilmasi shakllanishiga tarixan asos boʻlgan. Navoiy viloyati tabiiy geografiyasi, tarixiy-meʼmoriy obidalari, anʼana va urf-odatlar bilan turizm infrastrukturasini nihoyatda qulay yerda joylashgan. Biroq viloyat turizm imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish haligacha yetarlicha yoʻlga qoʻyilmagan [3;114].

Dastlabki huquqiy asoslarning yaratilishi natijasida 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab viloyatda "O'zbekturizm"ning hududiy bo'limi boshchiligidagi bir necha turistik tashkilotlar faoliyat yurita boshladi. Ularning faoliyati Respublika konstitutsiyasi va qabul qilingan farmon va qarorlar orqali asoslantirildi. 1995-1996-yillarda mahalliy hokimiyat va O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi hamkorligida "Navoiy – Raboti Malik – Sarmishsoy" sayyohlik yo'nalishlari shakllantirilib, hududda ichki turizmning dastlabki tashkiliy asoslari yaratildi. Keyingi bosqichda (ya'ni 2019-yilda), ushbu tarixiy-madaniy obyektlarni YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish tashabbusi ilgari surildi. Bu xalqaro e'tiborni jalb etishga qaratilgan muhim qadamdir.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarixidagi turizm sohasini tartibga soluvchi birinchi maxsus qonun 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi Qonun[4] hisoblanadi. Qonunning muhim jihati shundaki, u turizmni madaniy-ma'rifiy faoliyat sifatida emas, iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida e'tirof etdi. Navoiy viloyati iqtisodiyotida yangi yo'nalish – turizmni shakllantirish uchun huquqiy asos yaratdi va turizm tashkilotlari faoliyatini qonuniy tartibga solishga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[5] viloyatda turizmni qo'llab-quvvatladi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda (UNDP, IICAS) meros ob'ektlarini saqlash va targ'ib etishga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi. Misol uchun "Welcome to Uzbekistan", "Uzbekistan – Heart of the Silk Road" kabi brend shiorlari bilan reklama materiallari tayyorlanib, xorijiy OAVlarda chop etildi. 2015-yilda UNDP va Mahalliy hokimiyat bilan hamkorlikda "Nurota-Sentob ekoturizm zonasi" loyihasi ishga tushirildi.

2016-yil ikkinchi yarmidan Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston dunyoga ochilishni boshladi, qo'shnilar bilan do'stona aloqalar o'rnatildi. Bu o'zgarishlar mamlakat turizmida ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Zero, bu davrda "Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur"[6] edi. 2016-yil 2-dekabrda turizm sohasi bo'yicha muhim hujjatlar qabul qilindi. Ulardan biri – "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi hujjat turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida belgilab berdi, soha mas'ullari oldiga turizmni rivojlantirishda normativ-huquqiy, tashkiliy, infratuzilmaviy va marketing mexanizmlarini kuchaytirish vazifalari qo'yildi. "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi navbatdagi farmon bilan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi negizida yangi markaziy idora – Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi. Qo'mitaga hududlarda turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, investitsiya jalb etish, xalqaro aloqalarni kengaytirish vazifalari yuklatildi. Shu bilan O'zbekiston turizm sohasida yangi davr boshlandi.

Bu hujjatlar Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish uchun institutsional asos yaratdi. Ushbu farmonlar natijasida Navoiy viloyatida Turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi o'z faoliyatini boshladi. Bu boshqarma mahalliy marshrutlarni tuzish, yodgorliklarni inventarizatsiya qilish, turizm obyektlarini pasportlashtirish bilan shug'ullandi.

Natijalar. Viloyatdagi mavjud me'moriy obidalar ta'mirlanib, turizm yo'nalishining muhim obektlariga aylantirildi. Samarqand-Buxoro yo'nalishidagi obyektlari (Sardoba, Raboti Malik kabi) "Buyuk ipak yo'li" loyihasiga integratsiya qilindi. Strategiyasi asosida Navoiy xalqaro aeroporti faoliyatida ziyorat va madaniy turizmni rivojlantirishga qaratilgan yangi reyslar yo'lga qo'yildi. Bu, o'z navbatida, Navoiy viloyatini nafaqat sanoat markazi, balki turizm transport-logistika tuguniga aylantirishga xizmat qildi, viloyatni O'zbekistonning yirik turizm markazlaridan biriga aylantirishga huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asos yaratdi[7].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-iyuldagi "Navoiy viloyati G'ozg'on shahrini kompleks rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" 611-sonli qarori, "Navoiy viloyati Xatirchi tumanini kompleks rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 613-sonli qarorlari, 2019-yil 2-avgust "Navoiy viloyati Nurota tumanini kompleks rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 645-sonli qarori, 2020-yil 23-may kuni 2020-2022-yillarda "Navoiy

- 52 viloyati Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 323-sonli qarori viloyat hududlarida turizm rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorlar natijasida hududlarda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilma tizimini yaxshilash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy obyektlarni qurish hamda ko'kalamzorlashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Zarafshon shahrida "Aqlli shahar", "Xavfsiz shahar" tizimlari joriy etildi [8].

Navoiy viloyatidagi sayyohlarni jalb qilayotgan yoki jalb qilish imkoniyati bo'lgan asosiy arxitektura yodgorliklari[9]

№	Obyekt nomi	Obyekt davri	Oybekt manzili
1	Qosim Shayx majmuasi	XVI asr	Karmana tumani "Xo'ja Xisrav" MFY
2	Mirsaid Bahrom maqbarasi	XI asr	Karmana tumani "Mir Said Bahrom" MFY
3	Shayx Xo'ja Xisrav maqbarasi	XII asr	Karmana tumani "Xo'ja Xisrav" MFY
4	Sardoba Malikrabort	XI asr	Karmana tumani "Sardoba" MFY
5	Karvonsaroy Malikrabort	XI asr	Karmana tumani "Sardoba" MFY
6	Mavlono Orif Degaroniy majmuasi	XI asr	Karmana tumani "Hazora" MFY Qatag'on qishlog'i
7	Mirzachorbog' qarorgohi	XIX asr	Karmana "Ko'hna Qo'rg'on" MFY
8	Nuriddin Shayx	XIV asr	Karmana tumani "Mir Said Bahrom" MFY
9	Temir Shayx	XIV asr	Karmana tumani "Uyrot" MFY, Siyroc qishloq
10	Cho'yan Shayx	XIV asr	Karmana tumani "Uyrot" MFY, Siyroc qishloq
11	Qalqon ota majmuasi	XVI asr	Navbahor tumani "Qalqonota" MFY
12	Toshmasjid	1850-yil	Navbahor tumani "Arabxona" MFY Mixchagaron qishloq
13	Xonxo'ja Eshon bobo majmuasi	XVI asr	Navbahor tumani "Beshrabort" MFY
14	Qilichota	2002-yil	Konimex tumani "Sho'rtepa" MFY, Tokmang'it qishloq
15	Qalayi Azizon masjidi	XVIII asr	Qiziltepa tumani "Qalayn-Azizon" MFY
16	Toshmasjid va minora	XVI asr	Qiziltepa tumani "Vang'oz" MFY
17	Qo'rg'on masjidi	XVI asr	Qiziltepa tumani "Vang'oz" MFY
18	Boyazid Bastomiy masjidi	XIX asr	Qiziltepa tumani "Bo'ston" MFY
19	Xo'ja-Hasan Andoqiy masjidi	XIX asr	Qiziltepa tumani "Uzilishkent" MFY
20	Xo'ja Sa'd Vaqqos Sahiy masjidi	XIX asr	Qiziltepa tumani "Zarmitan" MFY
21	Chilustun masjidi	XVI asr	Nurota tumani "Eshon Sudir" MFY
22	Ko'k Gumbaz masjidi	XVI asr	Nurota tumani "Eshon Sudir" MFY
23	Shoximardon masjidi, majmuasi	XVI asr	Nurota tumani "Shayxon" MFY
24	Saidqul ota masjidi	XVI asr	Nurota tumani "Shahriston" MFY
25	Eshon Sudir hammomi	XVI asr	Nurota tumani "Eshon Sudir" MFY
26	Hasan-Husan masjidi	1905-yil	Nurota tumani "Dehibaland" MFY Dehibaland qishloq
27	Sher va baliq hovuzi	XX asr	Nurota tumani "Tumor" MFY
28	Oqmasjid masjidi	XVI asr	Xatirchi tumani "Bog'chakalon" MFY, Bog'chakalon qishloq

29	Badr ota masjidi	XVIII asr	Xatirchi tumani "Qoracha" MFY, Qoracha qishloq
30	Xo'jaqul Eshon masjidi	XVIII asr	Xatirchi tumani "Yangi" MFY, Istqilol qishloq
31	So'fi Olloyor masjidi	1922-yil	Xatirchi tumani "Oq Oltin" MFY, Shoxsuvor qishloq
32	Ellor ota masjidi	XIX asr	Uchquduq tumani "Abay" MFY
33	Kanarboy ora	XIX asr	Uchquduq tumani "Uzunquduq" MFY
34	Bedir ota majmuasi	XIX asr	Uchquduq tumani "Ayritom" MFY

Hududda boy tabiiy landshaft – Aydarko'l ko'li, Qizilqum cho'li, Nurota tog' tizmasi kabi ob'yektlar mavjud bo'lib, ekologik va ekstremal turizm uchun qulay zamin yaratadi. Viloyat, shuningdek, qadimiy tarixiy-madaniy meros obyektlariga boy bo'lib, Chashma ziyoratgohi, Raboti Malik karvonsaroyi, Sardoba va Nurota qadimiy inshootlari bu boradagi salohiyatni ifodalaydi. Hududdagi yirik sanoat obyektlari – xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK), Uchquduq va Zarafshon kabi markazlar sanoat turizmi (texnoturizm) uchun katta imkoniyatlar ochadi. Bundan tashqari, "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi xorijiy investorlar ishtirokini rag'batlantirish orqali turizm infratuzilmasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, viloyatning sanoat, tarix, tabiiy boyliklar va iqtisodiy erkin zonasi o'zaro uyg'unlashib, turizmning ko'p tarmoqli shakllarini rivojlantirish imkonini beradi [10;88].

Xulosa qilib aytganda, viloyat tashkil etilganidan hozirgi davrgacha bo'lgan davrda turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar, infratuzilma yangilanishi, sport va madaniyat tadbirlari, shuningdek, yoshlar turizmi sohasidagi dasturlar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, viloyatda 15 ga yaqin turizm turi faoliyat olib bormoqda, ularning har biri hudud iqtisodiyoti, madaniy hayoti va ijtimoiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda. Shu bilan birga, viloyatda yana turizmning bir qancha turlarini rivojlantirish potentsiali mavjud. Hududiy turizmning rivojlanishida tarixiy-madaniy merosni asrash, mahalliy jamoalarni jalb qilish va turizm infratuzilmasini takomillashtirish muhim omil hisoblanadi. Tahlil natijalari asosida xulosa qilinsa, Navoiy viloyatida turizm salohiyatini yanada kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, hududiy turizmni milliy va xalqaro darajada rivojlantirish uchun amaliy choralar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов Э., Сайидаминова З. Ўзбекистон Республикаси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 103.
2. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. <https://navstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> (ko'rildi: 13.05.2024)
3. Нарзуллаев У.О. Ўзбекистон Республикаси Навоий вилоятининг замонавий тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси. – Навоий.: 2019. – 114 б.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Туризм тўғрисида»ги Қонуни. 1999 йил 20 август // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1999. – № 9. – 227-модда.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 288-son Qarori. Toshkent, 2012-yil 10-oktyabr//O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – 2012. - №41-42. – 478-modda
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Туризмни янада ривожлантириш масалалари" муҳокамаси юзасидан сўзлаган нутқидан // Халқ сўзи, 2017 йил 4 октябрь, № 199 (6893)
7. Qodirova, M. (2020). Hududiy turizmni rivojlantirishda transport va logistika infratuzilmasining o'rni. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №1, 76–84

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-maydagi 323-son qarori "2020–2022-yillarda Navoiy viloyatining Zarafshon shahrini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4823495> (murojaat sanasi: 07.06.2024).

9. Jadval Navoiy viloyati madaniy meros boshqarmasi, Navoiy viloyati turizm boshqarmasi ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-son qarori "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

10. Солиёв С. Х. Халқ хўжалигининг туризм соҳасини ривожлантиришда ресурс салоҳияти // PhD диссертацияси. – Тошкент: 2021. – 140 б. – Б. 88.